



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AXLOQIY MADANIYATINI MILLIY TARBIYA METODLARI YORDAMIDA SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

M.Xallokova

FarDU katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (Phd)

X.Olimova

FarDu Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)
yo'nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7957040>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-May 2023 yil
Ma'qullandi: 18-May 2023 yil
Nashr qilindi: 22-May 2023 yil

KEY WORDS

*maktabgacha yoshdagi bola,
axloq, axloqiy tarbiya, milliy
tarbiya, metod, axloqiy sifatlar.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning
axloqiy madaniyatini shakllantirishda milliy tarbiya
metodlaridan foydalanish hamda bu orqali maktabgacha
tarbiya yoshidagi bolalarning axloqiy sifatlarini yanada
takomillashtirishning ahamiyati haqida so'z boradi.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ilk axloqiy me'yorlarni, qoidalarni o'rgatib borishda uzluksiz ta'limning ilk bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti asosiy o'rinni egallaydi, chunki maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy vazifalari qatoriga maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berish, ularga odob-axloq qoidalarini o'rgatish, xulq-atvor me'yorlarini singdirib borish, kundalik hayotda, jamiyatda, ijtimoiy munosabatlarda o'zlarini qanday tutishlari kerakligini o'rgatish kabi asosiy vazifalar kiradi.

Milliy tarbiyamiz o'zining boy metodik xazinasiga ega. Masalan, "Kechirmoq"-tarbiyalanuvchiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish maqsadida yo'l qo'ygan xato. Gunohni avf etmoq usuli; "o'ynamoq" atamasi-bu bola bilan unda ijobiy sifatlarni rivojlantirish salbiy sifatlarni kamaytirish maqsadiga yo'naltirilgan, ma'lum qoida va usullar bilan ijro etiladigan o'yinlar bilan o'ynash usuli. Bular o'zbek xalqining farzanllarida ijobiy fazilatlarni rivojlantirish, salbiy xulq-atvorlarni bartaraf qilish maqsadida qo'llagan va qo'llayotgan yo'l-yo'riqlar, harakat tartiblari, tarzlari tizimidir.

Bundan tashqari quyidagi metodlarni qo'llash orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy madaniyatini shakllantirib, rivojlantirib borish mumkin:

Ayblamoq - bolaning qilgan gunohi, xatosi uchun adolatli ravishda aybli deb topmoq va bolaning buni anglashiga erishmoq.

Arazlamoq - qilgan salbiy qilg'i uchun bolani aybsitib, undagina qilib yurmoq yoki tarbiyaviy maqsadda vaqtincha yuz o'girmoq.

Baholamoq - bola xulqiga uning ahamiyati, kadr, qiymati haqida ijobiy yoki salbiy fikr bildirmoq.

Baxslashmoq - bola bilan (guruhda), maktabda, uyda ilmiy, adabiy axloqiy mazmunda munozara qilmoq.

Begona qilmoq - bolaning yolg'on gapirganligi aniqlangach, qo'polligi muhokama qilingach va

h.k. Undagi vijdonni junbushga keltirish, qilgan xatosiga pushaymon bo'lishi uchun tarbiyachi, yoki ota-ona, yoki ona uni o'zidan vaqtincha uzoq tutib yurishi.

Biriktirmoq - odob-axloqda, biror hunarda ko'pchilikka namuna bo'lgan ustoz tarbiyasiga bermoq. O'tmishda ko'pni ko'rgan ota-onalar farzandlarining hayotni, odamlar, begonalar bilan muomala qilishni o'rgansinlar deb o'g'illarini choyxonachiga xizmatkorlikka bergan ekanlar.

Bitim - bolaning xulqiga, o'qishiga, kelajagiga oid jiddiy masalani uning o'zi bilan muhokama qilib, o'zaro ijobiy kelishuv, to'xtam qarorga kelmoq.

Buyurmoq - vaziyatning taqozosi bilan tarbiyaviy maqsaddan kelib chiqqan holda bolaning o'zi uchun, jamoa, millat, Vatan manfaatlarini ko'zlab buyruq bermoq.

Vada olmoq-bolaning o'z so'ziga sodiqligini, so'zi va ishi birligini sinash maqsadida undan biror ishning, majburiyatning bajarilishi haqida so'z olmoq.

Girgitton bo'lmoq- mehribonlik bilan, "aylanay", "o'rgilay" so'zlarini ishlatib, ismiga "jon", "xon" qo'shib bolani erkalash.

Inoqlashmoq–bola bilan yaqin, do'stona munosabat bog'lamoq ahillashib ketmoq.

Kafil bo'lmoq-bola bilmay, adashib xatoga yo'l qo'ygan chog'da uning yaxshiligi haqida boshqalar (jamo, tengdoshi, tarbiyachi, ota-ona)ni ishontirib, bola uchun mas'uliyatni o'z ustiga olmoq.

Kengashmoq - bola bilan oila, guruh, yoki uning o'zi oldida turgan muammoni birgalikda muhokama qilmoq.

Koyimoq - jazo berishning yengil turi. Bolaga tanbehlovchi so'z aytmoq, tanbeh bermoq, dakki berib koyimoq.

Kuzatmoq -guruh ahlining, har bir bolaning xulq-atvorini zimdan qarab, tekshirib turmoq, ko'zdan kechirmoq, qayd qilmoq.

Ko'rsatmoq-bolaga, bolalarga o'rnak yoki ibrat olishlari yoki ularda yangi tushuncha, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya hosil qilish maqsadida biror jarayon, harakat, narsaga diqqat e'tiborlarini jalb qilish.

Maqtamoq - bolani uning o'ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko'rsatib gapirmoq, yaxshi qilib ko'rsatmoq.

Nasihat –sokin, xayrixohlik bilan bolani yaxshi yo'lga solish, ta'lim berish berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o'git.

Ovutmoq - bolaning, uning oilasining boshiga biror kulfat tushganda unga tasalli berib yupatmoq, ovuntirmoq, yig'lashdan to'xtatmoq.

Odatlantirmoq - odob me'yorlarini me'yorlarini mashq qildirish. Masalan salomlashish, murojaat qilish, mehribonlik ko'rsatish va hokazolarga odat paydo etmoq o'rgatmoq.

Oqlamoq - shunday vaziyatlar bo'ladiki, bola yil bo'yi ajoyib xulq-atvor namunalarini ko'rsatib keladi-yu, bilib-bilmay bir xatoga yo'l qo'yadi. Masalan, birov bilan urishib qoladi, hasharga kelmay qoladi va h.k. Shunday holda tarbiyachi ota-ona uni oldingi namunali xulqini eslatib oqlamog'i kerak.

So'ramoq-balaning ma'naviy-axloqiy bilimlari haqila ma'lumot olmoq tekshirmoq norasmiy imtixon qilmoq.

Talab - tarbiyalash maqsadida boladan biror ishni boshqarishni so'rab turish.

Tasalli bermoq - muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolani yupatish ko'ngil ko'tarish uchun gapirmoq, ish-harakat qilmoq.

Ta'birlamoq-bolani guruh oldida, yaxshi hatti-harakatlari uchun sifatlab maqtash.

Ta'kidlamoq - bolalar bilan o'tkazilgan har bir vaziyatda, ularga sifatlab maqtash malol kelmaydigan axloqiy mazmunni uqtirib, tayinlab bormoq.

Taxsinlamoq - bolani qadrlamoq, munosib erishgan yaxshi natijali tashabbusi uchun baholamoq bolaga uning qadri bor ekanligini sezdirmoq.

Taqiqlamoq -tarbiyaviy maqsadda bolaga biron narsani man etmoq.

Tenglamoq - bola biror tahsinga sazovor ish qilganda, uning hatti-xarakatini eng hurmatli, aziz kishilar, bolaning ideallariga qiyoslash, yomon ish qilganida esa "yomon"deb nom qozongan shaxs xulqiga o'xshatmoq, taqqoslamoq.

Tergamoq - vaqti-vaqti bilan bolaga yetarli darajada qattiqqo'llikni namoyon qilib, tekshirib, nojo'ya hatti-harakatlari uchun koyib „yo'li“dan qaytarib turish.

Uyaltirmoq-noma'qul qiligi uchun bolaga o'ta noqulaylik tug'dirish, hijolat, andisha, nomus qildirmoq.

Erkatlamoq - o'g'il bolani "qo'zichog'im", "sherim", qiz bolani esa "oppog'im", onajonim" deya silab-siypalamoq, suymoq.

Yarashtirish-oilada, guruhda ba'zan uchraydigan opzaro urush-janjalni to'xtatish, urishmaslikka ahd qildirmoq, munosabatni yaxshilamoq, totuvlashtirmoq.

O'ynamoq -bola bilan unda ijobiy sifatlarni rivojlantirish salbiy sifatlarni yo'qotish maqsadiga yo'naltirilgan ma'lum qoida va usullar bilan ijro etiladigan o'yinlarni birga o'ynash usuli.

O'rgatmoq - bolaga biror ish harakat (masalan, choy damlashni, turli joy, vaziyatlarda o'zini tutishni, gapirishni va x.k) bajarish yo'l-yo'rigini tushuntirmoq, bildirmoq va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilmoq.

Sovg'a berish - bolaga bayram, xayitlar munosabati bilan imkon darajasida tuxfalar qilib, uning mehrini yangilab, oshirib turish.

Homiylik qilish-bolaga biror sohaga qiziqib, berilib shug'ullansa, bu ishda unga yordam, madad berish, moddiy qo'llab-quvvatlash muhofaza etish.

Shu bilan birgalikda bolaga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning salbiy metodlari mavjud. Ulardan ogohlantirish uchun ayrim namunalarni keltiramiz:

Aldamoq-yolg'on-yashiq gaplar bilan, va'dalar bilan avramoq, laqqillatmoq.

Gina qilmoq-bolaga nisbatan dilda xafalik, kek saqlamoq.

Yomonlamoq - bolaning oldida yoki orqasidan uni yomonlab, yomonga chiqarib, qoralab gapirmoq.

Zarda qilmoq - bolaga hadeb zarda, jaxl qilaverish.

Majbur qilmoq-hech bir asossiz bolaning, guruxning munosabati bilan hisoblashmay, amr, zo'rlik bilan yoki biror narsa taqozosi bilan bir ishni qilishni buyurish, ko'r-ko'rona talab.

Nizo-bolalar orasida o'zaro kelishmovchilik yoki qarama- qarshilik, dushmanlik, adovatli munosabat, ixtilof, nifoq hosil qilish.

So'kmoq- bolani yomon, uyat so'zlar bilan urishmoq, haqorat qilmoq, (odatda, bu usul so'kiluvchining so'kuvchiga bemehrligiga olib boradi).

Xo'mraymoq -farzandga, bolaga qovog'ini solib tikilmoq, yomon ko'z bilan qaramoq.

Shuni unutmaslik kerakki, maktabgacha tarbiya yoshida bolada shaxsning eng muhim ma'naviy-axloqiy sifatlari tarkib topadi, xarakter belgilari hosil bo'ladi. Tarbiyachi bolani tarbiyalash va rivojlantirish ishini boshqarib turadi. Bu ish bolalarning o'yin, mehnat mashg'ulotlarida bolalarni ijtimoiy hayot, jonajon tabiat hodisalari bilan tanishtirish

jarayonida amalga oshiriladi.

Ushbu keltirilgan metodlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy madaniyatini shakllantirish tarbiyachi-pedagoglar hamda ota-onalar uchun juda qulay hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev Milliy tarakkiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi boskichga ko'taramiz. T. "O'zbekiston", 2017.
2. Bogdanova O. S., Kataeva L. I. Bolalarni axloqiy tarbiyalash to'g'risida. - M.: Ta'lim, 2013.
2. Vetlugina N. A. Bolalar bog'chasida bolani axloqiy va estetik tarbiyalash. - M.: Iris-Press, 2011. - 204 p.
3. E. Goziyev. Psychology of ontogeny: theoretical and experimental analysis / E. Goziyev; Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan, National University of Uzbekistan. - T.: Noshir, 2010.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi S.H.Jalilova, S.M.Aripova «Faylasuflar» nashriyoti Toshkent – 2013 yil
5. Uljaevna U. F. et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – C. 47-51.
6. Uljayevna O. R. F., Saydamatovna S. Z. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING O'QUV-USLUBIY TA'MINOTI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B3. – C. 349-355.
7. Ergasheva D. O 'ZBEK XALQ ERTAKLARINING TURLARI VA ULARNING TASNIFI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 22.
8. Soliyev I., Ergasheva D. OUR FAVORITE WAYS TO TEACH FAIRY TALES //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 338-342.
9. Sobirjonovich S. I. EASTERN THINKERS'VIEWS ON EVERYWHERE EDUCATION OF CHILDREN //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 309-314.
10. Turg'unboyev B., Ergasheva D. MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH-BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARI O 'QUV-BILUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH VOSITASI SIFATIDA //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – T. 3. – №. 1 Part 1. – C. 162-164.